

**Kemyong universitetining  
O‘zbekistondagi I Xalqaro ijodiy tanlovi  
NIZOMI**

## 1. Umumiy qoidalar

**1.1.** Ushbu Nizom Kemyong universiteti (Koreya Respublikasi) tomonidan O'zbekiston yosh ijodkorlari o'rtasida tashkil etiladigan **I Xalqaro ijodiy** tanlovini (bundan keyingi o'rinlarda – tanlov deb yuritiladi) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

**1.2.** Mazkur tanlov yoshlar o'rtasida badiiy ijodiyotini qo'llab-quvvatlash, O'zbekiston yoshlarining dunyo mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan o'zaro ijodiy muloqot va turli madaniyatlar haqida tasavvurini boyitish, yangi izlanuvchan iqtidorlarni aniqlash, tasviriy san'at borasida yosh san'atsevarlarning kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, shuningdek, intellektual o'sishini rag'batlantirish, ularning Ona-Vatani va jahon tarixi hamda madaniyatiga qiziqishi, tasavvurini yanada kengaytirish maqsadida o'tkaziladi.

**1.3.** Tanlov tashkilotchilari O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Kemyong universiteti (*Koreya Respublikasi*) hisoblanadi (*keyingi o'rinlarda tashkilotchilar*) hisoblanadilar.

**1.4.** Tashkiliy qo'mita zaruratdan kelib chiqib, tanlov Nizomi va uni o'tkazish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.

## 2. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

**2.1.** Tanlovda Respublikamizdagi ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 10-11-sinf o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari (*bakalavr darajasi uchun tahsil olayotganlar*) ishtirok etishi mumkin.

**2.2.** Tanlovga **“Peyzaj va portret”** mavzusiga oid ijodiy ishlar qabul qilinadi.

**2.3.** Tashkilotchilar tomonidan tanlovni tashkillashtirish uchun maxsus Tashkiliy qo'mita tuziladi.

Tashkiliy qo'mita tanlovning Hakamlar hay'ati tarkibini shakllantiradi hamda Hay'at raisini tasdiqlaydi.

Hakamlar hay'ati tarkibiga Badiiy akademiya va Badiiy ijodkorlar uyushmasining mas'ul xodimlari, shuningdek, madaniyat va san'at sohasining yetakchi vakillari kiritilishi mumkin.

**2.4.** Tanlovda ishtirok istagida bo'lgan yosh ijodkorlarning ijodiy ishlari **2024-yilning 5-apreliga qadar** qabul qilinadi.

Tashkiliy qo'mita a'zolari kelib tushgan ijodiy ishlarni **2024 – yilning 10-apreliga qadar** ko'rib chiqadi, Tanlov ishtirokchilari ro'yxatini shakllantiradi hamda nomzodlarning yakuniy ro'yxatini tasdiqlaydi.

Tasdiqlangan ro'yxat Hakamlar hay'atiga taqdim qilinadi. Tanlov Hakamlar hay'ati tomonidan **2024-yilning 13- aprelga qadar** ijodiy ishlar saralab olinadi va

Kemyong universiteti Tashkiliy qo'mitasiga taqdim etiladi va g'oliblar aniqlanadi.

**2.5.** Tanlov natijalari Xalqaro an'anaviy "Tasviriy va amaliy san'at festivali" davomida O'zbekiston Badiiy akademiyasining <http://www.art-academy.uz> rasmiy sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

<https://t.me/artacademyuz>,

<https://www.facebook.com/badiiy.akademiya>,

[https://www.instagram.com/badiiy\\_akademiya](https://www.instagram.com/badiiy_akademiya)

hamda Kemyong universitetining rasmiy saytlari va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

### **3. Tanlov g'oliblarini taqdirlash**

**3.1.** Tanlov g'oliblari Hakamlar hay'ati tomonidan aniqlanadi.

**3.2.** Tanlov g'oliblariga Tashkilotchilar tomonidan qimmatbaho sovg'alar, pul mukofotlari va diplomlar topshiriladi.

Har bir tanlov ishtirokchisiga ko'rik-tanlovda ishtirok etgani haqida sertifikat taqdim etiladi.

**3.3.** Tanlov g'oliblarini taqdirlash doirasida O'zbekiston Badiiy akademiyasining "Akademiya" galereyasida tanlov ishtirokchilari ijodiy ishlaridan iborat ko'rgazma tashkil etiladi.

**3.4.** Tanlov ishtirokchilarining ko'rgazmasi va tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimining o'tkazilish kuni va joyi Tashkiliy qo'mita tomonidan Badiiy akademiyaning rasmiy internet sahifalarida bir hafta oldin e'lon qilinadi.

### **4. Ijodiy ishlarga qo'yiladigan talablar**

**4.1.** Tanlovga taqdim etiladigan ijodiy ishlarga quyidagi talablar qo'yiladi: asarning mavzusi asosida g'oyaning ochib berilishi; mazmundorlik, asarning mazmuni tanlov mavzusiga mos kelishi lozim; ranglarning aniq tanlanganligi va mutanosibliigi; ijodiy ishdagi texnika mahorati (ranglar bilan ishlash, yorug'lik va soyalarni ishlash mahorati);

kompozitsiyaning ishlanish mahorati va uning tugallanganlik darajasi.

**4.2.** Ijodiy ishlar 41 sm\*59,4 sm (A2) o'lchamdagi kent qog'ozi yoki tuval (xolst) da aks ettirilgan bo'lishi lozim.

**4.3.** Har bir ishtirokchi bittadan ijodiy ish taqdim qilishi mumkin.

**4.4.** Tanlovga Nizomga ilova qilingan namuna asosida ikki tilda (o'zbek va rus) to'ldirilgan arizalar qabul qilinadi. Ariza ijodiy ishning orqa tarafiga mahkamlangan holatda topshiriladi.

## 5. Yakuniy qoidalar

5.1. Tanlovni o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar tashkilotchilar hisobidan belgilangan tartibda qoplanadi.

5.2. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish jarayoniga homiylik mablag'lari jalb etilishi mumkin.

5.3. Tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan asarlar bo'yicha rasmiy izoh va sharh berilmaydi.

5.4. Tanlovni o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

5.5. Tanlov g'olib va sovrindorlar e'lon qilingandan so'ng boshqa nomzodlarning ariza va shikoyatlari ko'rib chiqilmaydi.

5.6. Tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlari tegishli hujjatlar bilan birgalikda quyidagi manzilda qabul qilinadi: **Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sodiq Azimov ko'chasi, 35-uy manzili, O'zbekiston Badiiy akademiyasi binosi, Ijodkor yoshlar bilan ishlash bo'limi ( telefon: 99871 232 06 75, +998 71 233 04 27)**

*Izoh: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 977-moddasiga muvofiq Tashkiliy qo'mita qarori bilan mazkur Tanlov Nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.*



<b>Kemyong universitetining O'zbekistondagi I Xalqaro ijodiy tanlovi</b>	
<b>F.I.Sh.:</b>	
<b>Tug'ilgan sana:</b>	
<b>Uy manzili:</b>	
<b>Tel. raqami:</b>	
<b>Ta'lim oladigan joyi:</b>	
<b>Sinf yoki Fakultet/yo'nalishi:</b>	

<b>Первый Международный практический конкурс Университета Кемён в Узбекистане</b>	
<b>Ф.И.О.</b>	
<b>Дата рождения:</b>	
<b>Домашний адрес:</b>	
<b>Тел. номер:</b>	
<b>Место образования:</b>	
<b>Класс обучения или же факультет/направление обучения:</b>	